



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziyo ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «17» август

VI-34-73-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

**Viloyatda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan 2021-yil birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar haqida viloyat prokurorining hisoboti to‘g‘risida**

Surxondaryo viloyati prokurori, adliya katta maslahatchisi S.Turdiyevning viloyatda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan 2021-yil birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotini tinglab, bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi**:

1. Surxondaryo viloyati prokurori, adliya katta maslahatchisi S.Turdiyevning viloyatda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan 2021-yil birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nazorat tadbirlari davomida viloyat prokururaturasi tomonidan 20 mingdan ortiq fuqarolar, shu jumladan, 1.3 mingdan ortiq yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanganligi, prokuror protestlari asosida 886 ta noqonuniy hujjatlar bekor qilinib, 935 tasi qonun talablariga muvofiqlashtirilganligi, huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida 937 nafar shaxs ogohlantirilib, 1 570 nafari intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortilganligi, qo‘pol qonunbuzilish holatlari bo‘yicha 180 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Termiz shahar va barcha tuman Kengashlariga joylarda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish va kelgusida ushbu faoliyatni samarali tashkil qilish maqsadida tuman (shahar) prokurorlariga takliflar kiritish tavsiya etilsin.

4. Viloyat prokuroriga quyidagilar tavsiya etilsin:

viloyatda qonuniylikni ta’minalash, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashni tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning bandligini ta’minalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy-

tashkiliy ta'minlashga oid Prezident farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari ijrosi borasida nazorat tadbirlarini doimiy ravishda olib borish;

fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda keltirilgan zararni undirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish;

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida prokuror nazorati samaradorligi va sifatini oshirish nuqtayi-nazardan tahlillar qilish va tegishli choralar ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro hujjatlarning qo'llanilishi va ijro etilishi ustidan prokuror nazoratini kuchaytirish bo'yicha choralar ko'rish;

ijtimoiy sohada kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor berish;

ijtimoiy ta'minot uchun davlat budgetidan yo'naltirilayotgan mablag'larning manzilliligini hamda bunda huquqbazarlikka yo'l qo'yayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish;

huquqbazarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolar va jamoat tashkilotlarining huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlash;

2021-yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan yoshlarning ta'lim olishi, kasbga tayyorgarligi, ijtimoiy foydali mehnatga jalb etilishi, pandemiya sharoitida aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan qonun hujjatlariga og'ishmay rioya etilishi ustidan doimiy nazorat tadbirlarini ko'rib borish;

ommaviy axborot vositalari hamda boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan inson huquqlari va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha hamkorlikni faollashtirish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida sud-huquq sohasidagi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish samaradorligini oshirish;

jamoat tashkilotlari bilan birgalikda jamiyatda korrupsiya holatlarining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni kuchaytirish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining qonunda belgilangan tartibda hal etilishini ta'minlash, bunda asosiy e'tiborni sayyor va ommaviy qabullarga qaratish.

5. Viloyat Bandlik bosh boshqarmasi (S.Jumayev) aholini ish bilan ta'minlash choralarini kuchaytirish maqsadida bo'sh ish o'rinalarini aniqlash, "Mehnat yarmarkalari" o'tkazish orqali ishsizlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar, xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlarni olib borsin.

6. Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvohidov) aholining reproduktiv salomatligini saqlash, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarning o‘z vaqtida va sifatli olib borilishini ta’minlash orqali onalar va go‘daklar o‘limi kabi noxush holatlarning oldini olish, shuningdek, uzoq muddat davomida chet el davlatlarida bo‘lib qaytgan fuqarolarning tibbiy ko‘riginи o‘z vaqtida o‘tkazish orqali aholi salomatligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Viloyat hokimining o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i F.Tirov oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan targ‘ibot tushuntirish tadbirlari tizimli ravishda olib borilishini yo‘lga qo‘yib, yaqin qarindoshlar o‘rtasida jinoyat va huquqbazarliklar sodir etilmasligiga qaratilgan choralarni ko‘rib borsin.

8. Viloyat Maktabgacha ta’lim boshqarmasi (Z.To‘laganov) bog‘cha yoshidagi bolalar qamrovini oshirish maqsadida davlat xususiy sherikchilik va oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishi jarayonlarini tezlashtirsin.

9. Viloyat hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (U.Turapov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.06.2021-yildagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmoni ijrosi so‘zsiz ta’milanishi, xusan, mahalliy hokimliklar tomonidan farmon talablariga zid ravishda qarorlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rsin.

10. Viloyat hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Xidirov) tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2021-yildagi ““Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli Qarori ijrosi o‘z muddatida, sifatli bajarilishini ta’minasin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Eshmuratov zimmasiga yuklatilsin.

12. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Кенгаш раиси**



**Боболов Т. А.**